

QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI

Saloxiddinov Shohrux Baxrom o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni Muhofaza Qilish Akademiyasi "Prokurorlik faoliyati" yo'nalishi 2-kurs talabasi
shohruxsaloxiddinov4@gmail.com

+998 33 973 04 04

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17798100>

Annotatsiya: Ushbu maqolada qonunlarni aniq va bir xilda amalga oshirilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuror tushunchasi, qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish, shuningdek, tekshirish o'tkazish va bu boradagi boshqa vakolatlari va ularning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati, prokuror tushunchasi, prokuror nazorati hujjatlari, prokuror vakolatlari.

PROSECUTORIAL SUPERVISION OVER THE EXECUTION OF LAWS

Saloxiddinov Shohrux Baxrom o'g'li

2nd year student of the faculty of "Prosecutorial activity",
Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan
shohruxsaloxiddinov4@gmail.com

+998 33 973 04 04

Annotation: This article examines the role and significance of the prosecutorial authority in ensuring the precise and uniform implementation of laws. It analyzes the concept of a prosecutor, the content and forms of prosecutorial supervision over the execution of legislation, the procedure for conducting inspections, prosecutorial acts, as well as the importance of these powers in strengthening public administration and legal order.

Keywords: Prosecutorial supervision over the execution of legislation; concept of a prosecutor; prosecutorial acts; prosecutorial powers.

Tushuntirilsinki, O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi ^[1].

Prokuror (lat. *procurare*-boshqarish, biror narsani bilish, g'amxo'rlik qilish)-ayblovning asosiy sud vakili. Ya'ni bu borada prokurorning asosiy vazifalari sud davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash. Prokurorlarning funksiyalari turli mamlakatlar turli xil va asosan tarixiy sharoitlar bilan belgilanadi ^[2]. Asosan MDH mamlakatlarida prokuror qonunlarning aniq bajarilishi ustidan yuqori nazoratni amalga oshiradi, sud davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaydi, qonunga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortadi, shuningdek prokuratura to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq prokuror zarur chegaralar va normalarda daxlsizlikka ega. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati soha nazoratining mustaqil tarmog'i bo'lib, o'ziga xos xususiyatga ega, boshqa davlat idoralarida uchramaydi. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati mazmunan qabul qilingan qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash bilan bir qatorda amaldagi me'yorlarni xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga muvofiqligi masalasini ham qamrab oladi. Bunda mazkur normalarni O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinganligi muhim ahamiyatga ega.

Prokuror qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida o'z vakolatlari doirasida:

vazirliklar, idoralarning, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, harbiy qismlarning hududi va xonalariga moneliqsiz kirishga, hujjatlar va materiallarni ko'rishga, tekshirishlar o'tkazishga, tekshirish uchun qarorlar, farmoyishlar, buyruqlar va boshqa hujjatlarni, qonuniylikning holati to'g'risidagi va uni ta'minlashga doir chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlarni talab qilishga;

davlat organlari, harbiy qismlar, vazirliklar va idoralarning harbiy tuzilmalari rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan ular tasarrufidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini tekshirish, taftish o'tkazishni, idoraviy va noidoraviy tekshirishlar o'tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilishga;

mansabdor shaxslar va fuqarolardan qonun buzilishi xususida og'zaki yoki yozma tushuntirishlar talab qilishga haqlidir [3].

Ma'lumki prokuror nazorati predmetiga Prezident farmonlari va hukumat qarorlari kirmaydi. Ammo prokuror ularni Konstitutsiya va qonunlarga zid deb hisoblasa, o'z fikrini ifodalagan ma'lumotni konstutsiyaviy sudga yuborishi mumkin. Bu ham o'z navbatida prokuror nazoratining ne chog'lik muhim ahamiyat kasb etishini bildiribgina qolmasdan nafaqat qonunlarni ijro etilishini balki ularni to'g'ri qabul qilinishida ham ishtiroki va qarorlari muhimdir.

Prokuratura organlari tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazorat.

Tekshiruv – nazorat va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan muayyan korxona, muassasa yoki tashkilotlarda qonunlar va ularni faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan bir yo'la nazorat.

Tekshiruvning quyidagi turlari mavjud:

- ✓ Kompleks tekshiruv;
- ✓ Moliya xo'jalik faoliyati tekshiruvi;
- ✓ Rejali tekshiruv;
- ✓ Rejadan tashqari tekshiruv;
- ✓ Qisqa muddatli tekshiruv;
- ✓ Qarama-qarshi tekshiruv;
- ✓ Nazorat tartibidagi tekshiruv. [4]

Prokuratura organlari tomonidan qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek qonuniylik ahvoli prokuror tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi. Shuningdek ijrosi ustidan tekshirish o'tkazishga ish rejaları, Hay'at Majlisi, muvofiqlashtiruvchi va idoralararo kengashlar qarorlari, Bosh prokuratura rahbariyati tomonidan ijrosi talab qilingan hujjatlar va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar asos bo'ladi^[5]. Qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirishlar asosan tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda o'tkaziladi. Tekshirishning yo'nalishidan qat'iy nazar, bu obyektida qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslar murojaatlarining hal qilinishi hamda huquqiy xizmat ishining samaradorligini o'rganishga kompleks yonadish talab qilinadi. Tekshirishga bir nechta xodim jalb etilganda ro'yxatda birinchi ko'rsatilgan shaxs ijro uchun asosiy mas'ul hisoblanadi. Qonunlar ijrosi ustidan tekshirish jarayonida yo'l qo'yilgan qonunbuzilish holatlari aniqlangan tadirda uni hal etish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxsga tegishli prokuror nazorati hujjatini kiritish orqali bunday holatlarga barham beriladi.

Prokuror nazorati nafaqat idoralarda tekshirish o'tkazish balki, jinoyat ishini qo'zg'atishning qonuniyligi ustidan ham nazorat amalga oshiradi ^[6], qolaversa, Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish chog'ida qonunlarning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirib,

ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atishga;

ma'muriy huquqbuzarliklar uchun tegishli organlar (mansabdor shaxslar) ta'sir ko'rsatish choralari to'g'ri qo'llanganligini tekshirishga va boshqa bir nechta vakolatlarga ega ^[7]

“Prokuratura to'g'risida”gi qonunning **5-bo'limi 37-moddasida** prokuror nazorati hujjatining turlari ko'rsatib o'tilgan. Bularga quyidagilar kiradi:

Protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv.

Xususan, protest keltiriladi, qaror qabul qilinadi, taqdimnoma va ariza kiritiladi, ogohlantiruv e'lon qilinadi. Barcha prokuror nazorati hujjatlari bitta maqsadga, ya'ni

qonun buzilishining haqiqatdan bartaraf etilishiga erishish,

buzilgan huquqlarni tiklash va qonunga zid bo'lgan hujjatni bekor qilish;

aniqlangan qonun buzilishining mazmunini tushuntirish;

ularni bartaraf etish uslublari bo'yicha yangi tavsiflar berish va h.k.

Har bir prokuror nazorati hujjatida buzilgan normativ-huquqiy hujjatlarning nomi va talablari, qonun buzilishining kelib chiqish sabablari va bunga imkon yaratib berayotgan shart-sharoitlar, shunga yo'l qo'ygan shaxslar va ularning javobgarlik masalasi aniq aks ettirilishi ushbu hujjatlarning huquqiy va mantiqiy asosini tashkil etadi. Prokuror nazorati hujjatlari sifatli rasmiylashtirilishi hamda uning matni O'zbekiston Respublikasi **“Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi** qonuni talablariga mos ravishda tayorlangan bo'lishi talab qilinadi.^[8]

Shunday qilib mazkur maqolada qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati, aniqlangan qonunbuzilishi holatlarini bartaraf etish bo'yicha tekshirish o'tkazishni qisman o'rgandik hamda tegishli prokuror nazorati hujjatlari o'rni va ahamiyatini tahlil qildik.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 143-modda,
2. Муродов Б., Хомидов В. Процессуальные основания производства обыска и следственного действия //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 2/S. – С. 402-411.
3. O'zbekiston Respublikasi “Prokuratura to'g'risida”gi qonuni 22-moddasi (2025-yil 1-dekabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
4. Jumayev Shohjahon Begimqul o'g'lining “Prokuror tekshiruvlari va ularni qonun hujjatlarida tartibga solishning dolzarb masalalari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi ishi
5. Prokuror nazorati. Darslik. Mualliflar jamoasi. - Toshkent: 2019-yil
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 337-moddasi, (2025-yil 1-dekabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
7. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 275-moddasi, (2025-yil 1-dekabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
8. Prokuror nazorati. Darslik. Mualliflar jamoasi. - Toshkent: 2019-yil